



## DAVLAT BOSHQARUVINI AMALGA OSHIRISHDA QONUNIYLIK TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Babaxanova Aziza Ismatovna**

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi  
yuridik xizmat yo'nalishi 2-kurs o'quvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883373>

**Annotatsiya:** maqolada muallif tomonidan qonuniylik tushunchasi va davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashning ahamiyati, shuningdek davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashdagi asosiy xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan.

**Аннотация:** в статье автор подробно анализирует понятие законности и значение обеспечения законности в государственном управлении, а также основные особенности обеспечения законности в государственном управлении.

**Annotation:** in this article, the author analyzes in detail the concept of legality and the importance of ensuring the rule of law in public administration, as well as the main features of ensuring the rule of law in public administration.

**Kalit so'zlar:** qonuniylik, davlat boshqaruvi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, nazorat, kontrol.

**Ключевые слова:** законность, государственное управление, правосознание, правовая культура, надзор, контроль.

**Key words:** legality, public administration, legal awareness, legal culture, supervision, control.

Har bir davlat o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o'zining Konstitutsiyasi – asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o'z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo'lgan mamlakat o'zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og'ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Bugungi zamonaviy davlat boshqaruvida qonuniylikni taminlash muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq “O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi”[1] deb belgilangan. So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida davlat faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tuzilmasi, ularning huquqiy holati, o'zaro munosabatlari qayta ko'rib chiqilib, zamon talablari darajasida tashkil etilmoqda. Jamiyat rivojlanishi bilan turli xildagi yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelib, ularni huquqiy tartibga solish muommosi paydo





bo'ladi. Bu muommalarning yechimini topishda qonuniylik prinsipiga tayanishimiz kerak bo'ladi.

Davlat boshqaruvining asosiy prinsiplaridan biri ham qonuniylikdir. Qonuniylik tushunchasi haqida ko'plab olimlar turlicha fiklar bildirishgan. Masalan, D.N.Baxraxning fikriga ko'ra, qonuniylik mazmunini aniqlashda birinchi navbatda qonunlarning sifatiga etibor qaratish ya'ni uning ijtimoiy munosabatlarga, huquqqa mos kelishini aniqlash kerak[2]. Qonunlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi o'ziga xos vosita sifatida, jamiyatda mavjud bo'lgan huquqiy darajaga, tashkilotchilik, madaniyat va axloqiy qoidalarga mos bo'lishi kerak. Qonuniylik huquqning jamiyat va fuqarolar manfaati yo'lida legalizatsiyalash vositasi bo'lishi kerak. Qonuniylik – bu yuqori sifatli huquqiy normalarning yetarlicha mavjud bo'lishi va barcha huquq subyektlari tomonidan unga qat'iy rioya etilishidir.

Bundan ko'rinib turibdiki, "Qonuniylik – bu qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan huquqiy hujjatlarga barcha davlat organlari, mansabdor va boshqa shaxslarning og'ishmay amal qilishiga aytiladi". Qonuniylik demokratiya va huquqiy davlat elementlaridan biri hisoblanadi.


Davlat organlarining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarining samarali amalga oshirilishi, ko'p jihatdan, ularning faoliyatida qonuniylik va intizomning ta'minlanganligiga yoki unga qay darajada rioya etilayotganligiga bog'liqdir. Qonuniylik deganda, davlat organlari faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunlari asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi tushuniladi. Huquqiy demokratik jamiyat mavjud bo'lishi va rivojlanishining asosiy belgilaridan biri ham qonuniylikdir. Davlat mexanizmining barcha elementlari (davlat organlari, davlat tashkilotlari, davlat xizmatchilari), fuqarolik jamiyati (jamoat, diniy va boshqa birlashmalar), shuningdek, fuqarolar uchun qonuniylik majburiydir.

Y.M.Kozlov davlat boshqaruvida qonuniylikning quyidagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi[3]:

**Birinchi**dan, barcha uchun qonunlarning majburiyligi. Aynan unda qonun talablarining ustunligi, uning oliy yuridik kuchini ko'rish mumkin. Hech kimga qonunni chetlab o'tishga yoki qonundan o'zini ustun qo'yishga yo'l qo'yilmaydi;

**Ikkinchi**dan, qonuniylikning yagonaligi bu mamlakat hududida qonun va qonunga asoslangan hujjatlar bir xilda tushunilishi va qo'llanilishini tushunishimiz mumkin;

**Uchinchi**dan, qonuniylik va maqsadga muvofiqlikning mos kelishi. Qonunning o'zi maqsadga muvofiqlikni namoyon bo'lishining yuqori darajasidir;





**To'rtinchidan**, qonuniylik va aholi huquqiy madaniyatining chambarchas bog'liqligi;

**Beshinchidan**, har qanday qaror qabul qilinganda, qonuniylik va adolat birinchi o'rinda turishi lozim;

**Oltinchidan**, davla boshqaruvida qonuniylikni buzganlik uchun javobgarlik muqarrar belgilanganida, ta'minlanishi mumkin.

Qonuniylik nazariyasi, avvalombor, huquqiy ongda shakllanadi va huquqiy munosabatlarda qatnashadigan barcha shaxslarning qonun talablariga muvofiq harakat qilishi va biror-bir g'ayriqonuniy harakatni amalga oshirmaslik talabiga bo'ysunishni, shuningdek subyektiv huquqlarning to'liq ijro etilishini bildiradi. Ma'lumki, qonuniylik huquqiy tartibot bilan uzviy holda amalga oshiriladi. Huquqiy tartibot jamoat tartibining bir qismi bo'lib, faqat huquqiy normalarning amalga oshirilishi natijasida paydo bo'ladi va kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy vositalar orqali tartibga soladi. Huquqiy tartibot – jamiyatda huquqiy tartibni saqlash uchun davlat organlari, jamoatchilik tomonidan huquqiy normalarni hayotga tatbiq qilish faoliyatidir. Huquqiy tartibot davlat tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinib, hayotdagi mavjud axloq, odob, an'analar muvofiqligi ta'minlanadi. Bundan tashqari davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri - qonunlarga og'ishmay rioya qilishni ta'minlashdir. Qonunlarga rioya etishning hamma uchun majburiyligi, uni buzishga aslo yo'l qo'yib bo'lmasligi huquqiy tartibot va aholining huquqiy madaniyati, ongi darajasini yuksaltirish davlat huquqiy tartibotni muhofaza etish funksiyasining mazmunini tashkil etadi.

Davlat ushbu funksiyani amalga oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi:

**birinchidan**, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish;

**ikkinchidan**, qonunlar ijrosini ta'minlash va ular ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

**uchinchidan**, fuqarolarni konstitutsiyaviy huquqlar va erkinliklar bilan ta'minlaydigan qonunchilikni yaratish;

**to'rtinchidan**, huquqni muhofaza qilish organlari tizimini shakllantirish;

**beshinchidan**, qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash.

Qonun va qonunosti hujjatlariga to'la rioya etishni ta'minlovchi vosita va sharoitlar qonuniylikning kafolatlari hisoblanadi. Bunday kafolatlarning





ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, mafkuraviy, maxsus yuridik jihatlari bor. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, turli shakldagi mulkchilik. jamiyatdagi iqtisodiy erkinliklar qonuniylikning ijtimoiy-iqtisodiy kafolati bo'ladi. Siyosiy hurfikrlilik, ko'ppartiyaviylik, davlat tuzumining demokratik tamoyillarga mosligi qonuniylikning siyosiy kafolatini belgilaydi. Qonun va qonunosti hujjatlarni tatbiq etish va ularning nazoratini ta'minlovchi samarali mexanizmning mavjudligi qonuniylikning tashkiliy kafolatidan darak beradi. Aholining huquqiy ongi darajasi, axloqiy tarbiyasi qonuniylikka mafkuraviy kafolat beradi. Qonuniylikning ta'minlanishi uchun amaldagi qonunchilikda mavjud usul va vositalar maxsus yuridik kafolat vazifasini bajaradi.

Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda davlat boshqaruvi organlari tomonidan qo'llaniladigan bir necha usullar mavjud bo'lib, ular davlat boshqaruv organlarining kontrol va nazorat faoliyati hamda fuqarolarning murojatlari orqali amalga oshiriladi.

Shu jumladan, bu borada mamlakatimizda qonuniylikni ta'minlashda davlat boshqaruv organlari huquqiy asoslarini yaratish va yaratilganlarini qayta ko'rib chiqish masalasi qo'yilmoqda. Davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlashda Prezidentlik instituti ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining kafilidir deb belgilab qo'yilgan[4]. Bu borada Prezident virtual qabulxonasi tashkil etildi. Prezident Xalq qabulxonalari davlat organlari bilan aholi o'rtasida ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, dolzarb muammolarni aniqlash, davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan murojaatlarning ko'rib chiqilishini ta'minlashda o'ziga xos samarali mexanizmga aylandi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Бахрах.Д.Н, Россинский.Б.В, Старилов.Й.Н. Административное право: Учебник для бузов. –М.: "Норма", 2004. 707-б.
3. Козлов.Й.М. Административное право.- М.: "Юрист", 2003.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

